

BOLALARDAGI BILISH JARAYONLARI HAMDA SEZGI VA XOTIRANING SHAKLLANISHI

Urakova Nazira Lukmanovna

Samarqand viloyati Ishtixon tumani

2-sonli ixtisoslashtirilgan

davlat umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalardagi bilish jarayonlari va sezgining shakllanishi masalalari yoritilgan. Bilish jarayonlarining bola shaxsi rivojlanishidagi o'rni, sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvurning rivojlanish xususiyatlari hamda ularni takomillashtirishning psixologik jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: bilish jarayonlari, sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur, psixik rivojlanish, bola psixologiyasi, ta'lim-tarbiya.

KIRISH

Insonning atrof-muhitni anglash va o'rganish jarayoni bilish faoliyati orqali amalga oshadi. Bilish jarayonlari shaxsning intellektual rivojlanishida muhim o'rin tutib, bola hayotining ilk davrlaridanoq shakllana boshlaydi. Sezgi esa bilish jarayonlarining dastlabki va eng oddiy shakli bo'lib, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettiradi. Shu sababli bolalarda sezgining rivojlanishi keyingi bilish jarayonlarining shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Sezgi insonning sezgi a'zolari orqali atrof-muhitdagi ta'sirlarni qabul qilish jarayonidir. Bola dunyoga kelgan ilk kunlaridanoq yorug'likni, tovushlarni, haroratni va turli ta'sirlarni sezish imkoniyatiga ega bo'ladi. Rivojlanish jarayonida sezgilar takomillashib boradi va bola atrofdagi olam haqida tobora kengroq tasavvur hosil qiladi. Sezgining rivojlanishi ko'p jihatdan bolaning yashash muhiti va faoliyatiga bog'liq.

Turli ranglar, tovushlar, shakllar va predmetlar bilan tanishish sezgi organlarining faoliyatini faollashtiradi. Ota-onalar va pedagoglarning bolaga boy taassurotlar beruvchi muhit yaratishi sezgi rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bilish jarayonlarining keyingi bosqichi idrok hisoblanadi. Idrok orqali bola predmet va hodisalarni yaxlit holda qabul qiladi. Masalan, bola alohida rang, shakl yoki tovushni emas, balki predmetning umumiy obrazini anglay boshlaydi. Idrokning rivojlanishi bolaning atrofdagi voqelikni to'g'ri tushunishiga yordam beradi. Diqqat ham bilish jarayonlarining muhim tarkibiy qismidir. Diqqat bolaning ma'lum bir faoliyatga yoki predmetga ongli ravishda e'tibor qaratishini ta'minlaydi. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda diqqatning barqarorligi asta-sekin rivojlanib boradi. Qiziqarli mashg'ulotlar va didaktik o'yinlar diqqatni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Xotira bilish faoliyatining asosiy jarayonlaridan biri bo'lib, olingan ma'lumotlarni eslab qolish, saqlash va qayta tiklash imkonini beradi. Bolalik davrida xotira jadal rivojlanadi. She'r yodlash, hikoya qilish, rasmlar bilan ishlash va mantiqiy mashqlar xotirani mustahkamlashga yordam beradi. Tafakkur bolaning intellektual rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Tafakkur yordamida bola predmetlar va hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni tushunadi, muammolarni hal qiladi va yangi bilimlarni o'zlashtiradi. Ta'lim jarayonida savol-javoblar, muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlar tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi. Tasavvur esa bolaning ilgari qabul qilgan obrazlari asosida yangi tasvir va g'oyalarni yaratish qobiliyatidir. Tasavvur ijodkorlikning asosi hisoblanib, rasm chizish, ertak to'qish, rolli o'yinlar va badiiy faoliyat jarayonida faol rivojlanadi. Bilish jarayonlarining samarali rivojlanishi uchun oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik muhimdir. Bolaga mehribonlik, qo'llab-quvvatlash va rivojlantiruvchi muhit yaratish uning psixik taraqqiyotini jadallashtiradi hamda bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Kishi tevarak atrofdagi olam haqida doimo axborot olib turishi kerak. Axborotlarning ko'pligi (ortiqchaligi) yoki tanqisligi (sensor izolyatsiya) organizmda jiddiy funksional buzilishlarga olib kelishi mumkin. Buni tekshirib ko'rish uchun maxsus surdokameralarda

ko'plab tajribalar o'tkazilgan. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, sinaluvchi to'la izolyatsiya holatida bir necha soatdan keyin vahimaga tushadilar, tajribaning to'xtalishini talab qila boshlaydilar. Ularda og'riq, haroratni sezish kabi sezgilar ham buzilishi kuzatiladi. Agar odam ko'proq vaqt izolyatsiyada saqlansa, unda uning ongi buzilishi, turli galyuyutsinatsiyalar kuzatiladi. Real paytda bunday sharoit ongning butunlay buzilishiga olib kelishi mumkin. Sezgilar va ularning mohiyati haqida ko'plab nazariyalar mavjud. Avvalo shuni ta'kidlab o'tish lozimki, materialistik psixologiya sezgilarni materiya ta'sirining natijasi deb qaraydilar. Sezgilarning haqiqiy mezoni esa amaliyot hisoblanadi.

Sub'ektiv idealistlar (Berкли, Yum, Max) olamni sezgilarning yig'indisi sifatida talqin qiladilar. Boshqa bir nazariya tarafdorlari (I. Myuller, Gelmgolts) sezgi organlarining o'ziga xos quvvati haqida fikr yuritadilar. Ularning fikricha sezgilar faqat tashqi ta'sirlarning timsoli, shartli belgilari. Shu sababli ular qaysi sezgilar organiga ta'sir qilsa, shu analizatorga xos sezgi hosil bo'ladi. Bu nazariyaning to'g'riligini isbot qiluvchi ko'plab misollar bor – elektr toki, bosimning ta'sirida turli analizatorlarda turli sezgilar hosil bo'ladi.

Ammo hid, tovushlar boshqa sezgi organlariga ta'sir qilib, ularga xos sezgilar hosil qilmaydilar. Sezgi organlari maxsus signallarni qabul qilishga ixtisoslashgan. Sezgi a'zolarining ixtisoslashishi – uzoq davom etgan evolyutsion taraqqiyot mahsulidir. Bundan shunday xulosaga kelish mumkin. Sezgi a'zolarining o'ziga xosligi sezgilarning o'ziga xosligini keltirib chiqarmaydi. Sezgi organlarining o'ziga xos tashqi olamning o'ziga xos xususiyatlari natijasida shakllangan.

Mana shunday maxsuslashgan sezgi organlarining majmui analizatorlarni tashkil qiladi. Har qanday analizator uch qismdan iborat: 1) tashqi ta'sir kuchini ichki nerv quvvatiga (jarayoniga o'tkazadigan maxsus transformator-analizatorning pereferik qism; 2) analizatorning pereferik qismini markaziy qism bilan bog'laydigan o'tkazish yo'llari. Ular afferent (markazga intiluvchi, efferent (markazdan qochuvchi) va 3) markaziy, pereferiyadan keluvchi signallarni qabul qilib, qayta ishlovchi qism (miya qismi). Analizatorlarning pereferik bo'limida motor va hissiy qismlar uyg'unlashganligi sababli

ular ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchilarning ob'ektiv xususiyatlarni aynan aks ettiradi. Sezgilarda ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchining xarakteriga, qo'zg'alishni qabul qilish masofasi, retseptorlarining joylashgan o'rinlariga ko'ra klassifikatsiya qilinadi.

Ekstrotseptiv sezgilarning o'zlari ikki guruhga – kontakt (bevosita aloqa bog'lovchi) va distant sezgilarga ajratiladilar. Kontrakt sezgilarga (kontakt retseptorlar orqali sezgi hosil bo'ladi) quyidagilar kiradi: ko'rish, eshitish, hid bilish, teri sezgisi, ta'm bilish sezgilari. Sezgilarning bu klassifikatsiyasi modallik bo'yicha klassifikatsiya deyiladi va ular sezgilarning klassik klassifikatsiyasi deb ham yuritiladi. Chunki ular Aristotel tomonidan ko'rsatib o'tilgan sezgilardir. Ular orasidan teri sezgisining o'zi bir qancha turlarga bo'linadi (to'qish, harorat, og'riq kabi). Boshqa tabiat va psixik hodisalar kabi sezgilarda ham ma'lum umumiy xususiyatlar va qonuniyatlarga ega. Shu jumladan ularning sifati, intensivligi (kuchi), davomiyligi sezgilarning umumiy xususiyatlariga kiradi.

Sifat–mazkur sezgining asosiy xususiyati bo'lib, uni boshqa sezgilardan farqlaydi va shu sezgi doirasida o'zgarib turadi. Masalan, eshitish sezgisida tovushning balandligi, mayinligi, zo'rliigi; ko'rish sezgisining boyligi, ranglari va h.k. Sezgilarning sifatlarining boyligi va rang-barangligi materiyaning rang-barangligini aks ettiradi. Sezgilarning intensivligi-ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchilarning kuchi va analizatorlarning funksional holati bilan belgilanadi.

Davomiyligi- sezgining vaqt bilan bog'liq xususiyati. U ham qo'zg'atuvchining xususiyati va analizatorning funksional holati bilan bog'liq. Qo'zg'atuvchi sezgi organiga ta'sir qilgandayoq sezgi hosil bo'lmaydi, balki biroz vaqt o'tadi. Bu vaqt sezgining latent (yashirish) davri deyiladi. Turli sezgi organlarining javob berish tezligi, ya'ni latent vaqti turlicha: taktik sezgilarda uchun u 130 millisekund, og'riq uchun 370 millisekund, ta'm bilish uchun 50 millisekundni tashkil qiladi.

Shuningdek, sezgi qo'zg'atuvchi o'z ta'sir kuchini to'xtatgan zahoti yo'qolmaydi. Qo'zg'atishning asorati, ta'siri yana bir qancha vaqt davom etadi va ular keyin keluvchi obrazlarni hosil qiladilar. Keyin keluvchi obrazlar ijobiy yoki aksi (negativ) bo'lishi

mumkin. Analizatorlarning sezgirligi bir qator fiziologik, psixologik va muhitning ta'siri ostida o'zgaradi. Bu o'zgarishlar orasida adaptatsiya hodisasi alohida o'ringa ega. Adaptatsiya yoki moslashuv deganda kuzatuvchining ta'siri ostida sezgi organlari sezgirligining o'zgarishi tushuniladi. Adaptatsiyaning uch turi farqlanadi:

Kuzatuvchining davomli ta'siri natijasida sezgilarning to'la yo'qolishi. Agar sezgi organiga biror qo'zg'atuvchi doimo ta'sir qilib tursa sezgi batamom yo'qolib ketish tendensiyasiga ega. Masalan, teriga tegib turgan yengil yuk tez orada sezilmay qoladi (qo'l soati borligini biz sezmaymiz). Bir hid bor joyda uzoq vaqt bo'lsak bu hid sezilmay qoladi. Kuchli qo'zg'atuvchi ta'siri ostida sezgi organlarining zaiflashishi, kamayishi (negativ adaptatsiya). Agar qo'limizni muzday suvda tutib tursak teridagi sovuqni sezish retseptorlarining sezgirligi kamayadi. Ko'zga kuchli yorug'lik ta'sir qilib tursa ko'zning sezgirligi kamayib, ko'z shu yorug'likka moslashadi. Bu hodisa yorug'lik adaptatsiyasi deyiladi. Kuchsiz qo'zg'atuvchi ta'siri ostida sezgi organlarining sezgirligi oshishi. Bu pozitiv adaptatsiya deb ataladi. Masalan, kinozalga kechikib kirgach bir qancha vaqt hech narsani ko'ra olmaymiz. Birozdan keyin biz atrofni ko'ra boshlaymiz. Ko'zning sezgirligi oshdi. Buni qorong'ulik adaptatsiyasi deyiladi.

Odatda negativ va pozitiv adaptatsiya bir sezgi organida bir vaqtda ro'y beradi. Undagi bir guruh retseptorlarning sezgirligi oshadi, ikkinchi (qarama-qarshi) guruh retseptorlarining sezgirligi kamayadi. Kinozalga kirganda qorong'ulikni ko'rishga moslashgan hujayralarning (retseptor) sezgirligi kamayadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan negativ va pozitiv adaptatsiya mavjudgi sababli uy haroratida bo'lgan suv qishda «issiq», yozda «sovuqdek» tuyuladi. Ba'zi retseptorlarning bor yoki yo'qligi to'liq o'rganilmagan. Har holda sezgi organlari butunlay yo'qolmaydi.

XULOSA

Bolalardagi bilish jarayonlari va sezgining shakllanishi shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib, bolaning atrof-muhitni anglashiga xizmat qiladi. Ushbu

jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik va psixologik ta'sirlar bolalarning intellektual salohiyatini oshirish va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Nishonova Z.T. Bolalar psixologiyasi va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2019.
3. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent, 2019.
5. Vygotskiy L.S. Bolalar psixologiyasi. – Moskva.
6. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva.
7. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.